320 b.

GENDER ZO‘RAVONLIK VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Nurumbekova Y. A.,
GDPI dotsenti.**Nishanbayeva S. A.,**
GulDU doktarantiE-mail: yarkinay@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda gender zo‘ravonlik ko‘pincha ayollarga nisbatan sodir etilib, zo‘ravonlikning asosiy jihati ayollar jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli emas degan fikrning mavjudligi, ayollarga nisbatan past nazar bilan qaralishi oqibatida vujudga kelishi ko‘rsatib o‘tilgan. Gender zo‘ravonlikning asosiy ko‘rinishlari, kelib chiqish sabablari va unga ta’sir etuvchi omillar va zo‘ravonlik muammosini bartaraf etish bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. gender zo‘ravonlik, jinsiy tenglik, ijtimoiy omillar, stress, hamkorlik, jamiyat, munosabat, himoya.

Annotation. This thesis pointed out that gender violence is often committed towards women, and that the main aspect of violence is the existence of the idea that women are not equal in society with men, resulting from a low view of women. The main manifestations of Gender violence, the causes of origin and the factors that affect it and conclusions and proposals to eliminate the problem of violence are presented.

Keywords. gender violence, gender equality, social factors, stress, cooperation, society, attitude, protection.

KIRISH

Gender zo‘ravonlik – bu shaxsga nisbatan sodir etiladigan jismoniy, ruhiy, jinsiy hamda iqtisodiy tazyiqlar yig‘indisidir. Bu kabi zo‘ravonliklar aksariyat hollarda ayollarga nisbatan sodir etiladi, ammo bolalar va erkaklar ham bu muammoga duch kelishlari mumkin. Gender zo‘ravonlik global miqiyosda keng tarqalgan ijtimoiy muammo bo‘lib, inson huquqlari buzilishi, sog‘liq, ta’lim, mehnat huquqlari va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, har uch ayoldan biri umrida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchragan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustaxkamlash kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PK-3808-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2019 yil 2 sentyabrida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish

to‘g‘risida” PK-4602-son qarori oilaviy zo‘ravonlikni oldini olishdagi asosiy qonun xujjatlari bo‘lib xizmat qiladi.[57]

Gender zo‘ravonlik-bu erkaklarni ayollardan ustun qo‘yuvchi patriarxal munosabat tuzilmalari va madaniy me’yorlar sabab saqlanib qolayotgan inson huquqlarining buzilishi va gender tengsizligining yuzaga kelishidir. Uning oqibatlari keng qamrovli bo‘lib, jismoniy, psixologik va ijtimoiy farovonlikka tezkor va uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlik-bu gender zo‘ravonlikning, odatda, turmush o‘rtoqlar, juftliklar yoki oila a’zolari o‘rtasidagi yaqin munosabatlar doirasida sodir bo‘ladigan shakli. Bu holat jismoniy, hissiy va jinsiy zo‘ravonlik hamda ruhiy qiynoq va moliyaviy holatini suiiste’mol qilish kabi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Oiladagi zo‘ravonlik, jinsidan qat’iy nazar, har qanday turdagi munosabatlarda sodir bo‘lishi mumkin, biroq global miqiyosda to‘plangan dalillar shuni ko‘rsatadiki, undan, asosan, ayollar aziyat chekadi.

Oiladagi zo‘ravonlik — yoshi, etnik kelib chiqishi, ta’lim darajasi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’iy nazar, jamiyatning barcha qatlamlariga mansub kishilarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Biroq, marginallashgan guruhlar yoki ozchilik guruhlariga mansub ayollarda kamsitish (diskriminatsiya)ning turli shakllari o‘zaro kesishishi natijasida oiladagi zo‘ravonlikni boshdan kechirish xavfi yuqori bo‘lishi mumkin.

Misol uchun, etnik ozchilik guruhlari vakillari yoki nogironligi bo‘lgan ayollar yordam va qo‘llab-quvvatlash so‘rab murojaat qilishda ko‘proq to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Bu ayollar, shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar yoki huquq-tartibot idoralari tomonidan kamsitish va noxolis munosabatga uchrashining ehtimoli mavjud bo‘lib, bu muammoni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu bois, ushbu shaxslar duch keladigan o‘ziga xos muammolarni e’tirof etish va hal qilish hamda ularga zo‘ravonlik vaziyatlaridan chiqib ketish uchun tegishli yordam va resurslarni taqdim etish juda muhim.

Gender zo‘ravonlik global miqyosda ham, muayyan mintaqalar darajasida ham jiddiy iqtisodiy yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ayollarga nisbatan bo‘lgan zo‘ravonlikning global miqiyosdagi iqtisodiy zarari global yalpi ichki mahsulotning qariyb 2 foizini tashkil qilishi mumkin bo‘lib, bu taxminan 1,5 trln dollarga — Kanada iqtisodiyotining hajmiga teng. Bundan tashqari, Yevropa gender tengligi masalalari instituti (EIGE) tomonidan gender zo‘ravonlikning Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy zarari yiliga 366 mlrd yevro atrofida baholangan.

Ushbu xarajatlar tibbiyot va sud xarajatlari kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, shuningdek, mehnat unumdorligining yo‘qotilishi, qoldirilgan ish kunlari, ruhiy salomatlik va farovonlikka ta’sir kabi bilvosita xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Gender zo‘ravonlikning iqtisodiy yuki nafaqat alohida shaxslar va oilalarga ta’sir qiladi, balki milliy iqtisodiyotlar uchun ham jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Gender zo‘ravonlik va uning iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etish profilaktika, jabrlanganlarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilgan keng qamrovli

[57] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. - https://lex.uz

siyosat, dasturlar va tadbirlar o‘tkazishni talab qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarni kuchaytirish orqali jamiyatlar barcha uchun xavfsizroq, adolatliroq va farovonroq kelajakni yaratishi mumkin.

BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) milliy hukumatlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ayollar guruhlari va xususiy sektorni gender zo‘ravonlikning asosiy kelib chiqish sabablarini, xususan, gender asosida kamsitilish va huquqlar tengsizligini bartaraf etishda qo‘llab-quvvatlaydi. BMTTD tomonidan bu boradagi sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash usullaridan biri-xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan siyosat va qonunchilikni ilgari surishdir. Bu, o‘z navbatida, hukumatlar bilan gender zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanadigan va jabrlanuvchilar uchun yuridik, tibbiy va psixologik yordam olish imkoniyatini ta’minlaydigan qonunlarni ishlab chiqish va tatbiq etish yo‘lida hamkorlikni qamrab oladi.

Gender zo‘ravonlikka qarshi samarali javob choralarini ko‘rish uchun hukumat ichki ishlar xodimlari, sudyalar va boshqa mansabdor shaxslarni tayyorgarlikdan o‘tkazdi. Bundan tashqari, hukumat tomonidan Gender tengligi va xotin-qizlar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejasi qabul qilindi, Oliy Majlis Senati huzurida xotin-qizlar huquqlarini ilgari surish yo‘lida faoliyat yurituvchi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi, siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ayollarning ishtirokiga imkon yaratildi.

Jismoniy zo‘ravonlik – urish, do‘pposlash, tanaga jarohat yetkazish kabi harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Ruhiy (psixologik) zo‘ravonlik – tahdid, haqorat, shaxsiy erkinlikni cheklash, izolyatsiya qilish.

Jinsiy zo‘ravonlik – zo‘rlash, jinsiy majburiyatga undash, istalmagan jinsiy aloqalar.

Iqtisodiy zo‘ravonlik – moliyaviy resurslardan mahrum qilish, ishlashga yoki ta’lim olishga yo‘l qo‘ymaslik.

Gender zo‘ravonlik jamiyatdagi eng chuqur ildiz otgan muammolardan biri bo‘lib, ko‘plab insonlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu turdagi zo‘ravonlik nafaqat ayollar, balki erkaklar va boshqa ijtimoiy guruhlarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi omil hisoblanadi. Unga qarshi kurashish uchun, avvalo, uning yuzaga kelish sabablari va unga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish zarur.

Ijtimoiy-madaniy omillar. Ko‘pgina jamiyatlarda hozirgacha patriaxal madaniyat hukm suradi, ya’ni erkaklar ustun, ayollar esa itoatkor deb qaraladi. Bunday yondashuv gender rollarining qattiq belgilanishiga va zo‘ravonlikka “odatiy hol” sifatida qaralishiga olib keladi.

Huquqiy va institutsional omillar. Gender zo‘ravonlikka qarshi kurashishda qonunchilik tizimi hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Iqtisodiy omillar. Ba’zi ayollar iqtisodiy jihatdan erkaklarga bog‘liq bo‘lishadi. Ishsizlik, kambag‘allik, moliyaviy mustaqillikning yo‘qligi ayollarni zaif holatga soladi. Ba’zida erkaklar o‘z sheriklarini ishlashga yoki ta’lim olishga yo‘l qo‘ymaydi, bu esa iqtisodiy zo‘ravonlik deb ataladi.

Psixologik va shaxsiy omillar. Zo‘ravon shaxslarning o‘zlari ham ko‘pincha bolalikda zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan yoki jabrlangan bo‘ladi. Ular tajovuzkorlik kabi psixologik muammolar ichida voyaga yetishadi.

Axborot vositalari. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda gender tenglikka oid noto‘g‘ri tasvirlar keng tarqalgan. Filmlar, reklama va teleko‘rsatuvlarda ayollar ko‘pincha zaif, bo‘ysunuvchi yoki jozibador obyekt sifatida ko‘rsatiladi, erkaklar esa kuchli va hukmron obrazlarda namoyon etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, dunyo bo‘yicha har uchinchi ayol hayotida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchragan. Bundan tashqari, har 11 daqiqada bitta ayol yoki qiz yaqin insoni tomonidan o‘ldiriladi.

Xulosa

Dunyo miqyosida o‘tkazilgan tadqiqotlar, maishiy zo‘ravonlikning, shu jumladan, jismoniy va jinsiy ta’sirlarning keng tarqalganligini ko‘rsatmoqda. Ayollar, ayniqsa, uy ichidagi zo‘ravonlik holatlarida eng ko‘p nishonga olinadi, bu esa ularning salomatligi, iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning jamiyatdagi eng og‘ir oqibatlari nafaqat ular uchun shaxsiy jismoniy va ruhiy travma keltiradi,

Inson qadri uchun tamoyilini ro‘yobga chiqarishda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi tom ma'noda tarixiy voqea bo‘ldi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan ushbu tarixiy dasturulamal hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendentsiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan. Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e'tiborga olingan va yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirilgan. Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan mazkur Taraqqiyot strategiyasida O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirish istiqbollari belgilab olingan. Bu borada quyidagi yettita ustuvor yo‘nalish bo‘yicha «Inson qadri uchun — 100 ta maqsad»ni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda: — inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; — mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; — adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

Gender zo‘ravonlikka qarshi kurashish-bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining, balki butun jamiyatning ustuvor vazifasidir. Ta’lim orqali gender tengligini targ‘ib qilish, gender stereotiplarni yo‘qotish, ayollarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, zo‘ravonlarga nisbatan jazo qo‘llash orqali bu muammoga barham berish mumkin.